

KOREYS TILINING LEKSIKASI VA PAYDO BO‘LISH TARIXI

Soatmuminova Sevinch Ismoil qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti

Filologiya va tillarni o‘qitish :

Koreys tili 3-bosqich talabasi

Email: soatmuminovasevinch@gmail.com

Tel number: +998880090471

Annotatsiya: Ushbu maqolada koreys tilining leksikasi va tarixi koreys alifbosining ixtiro qilinishi, koreys tilining kelib chiqishi to‘g‘risidagi nazariyalar, ommaviy savodsizlik muammolari, ijtimoiy tabaqalanishning tilga ta‘siri, komparativistik qarashlar, genetik munosabatlarni tasdiqlovchi dalillar, genetik munosabatlarning kashf etilishi, Oltoy gipotezasi va koreys va yapon tillarining o‘zaro bog‘liqligi haqidagi gipotezalar kabi masalalar atroflicha yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Koreys tili, komparativistlar, genetik munosabatlar, Oltoy gipotezasi, qiyosit tadqiqot yozishmalari, konverb.

KIRISH

Koreys tilining leksikasi va tarixi koreys alifbosining yaratilishi bilan boshlanadi. 1446-yildan boshlab koreys alifbosi tilning leksik, fonologik va morfologik tuzilishi haqida aniq va batafsil ma‘lumotlar manbai bo‘lib kelgan. O‘sha davrga qadar mazkur til haqida ma‘lumot beruvchi manbalar boshqa tillar ozuvi bilan ifodalangan, xususan, Xitoy alifbosidan foydalangan holda kores tili to‘g‘risidagi hamma ma‘lumotlarni ifodalashga harakat qilishgan. Ammo afsuski bu ikki tillarning fonetikasi o‘rtasidagi farqlar yetkazilishi maqsad qilingan tushunchani ifodalash jarayonida ko‘plab o‘zgarishlarga yuz tutgan, bu esa o‘z-o‘zidan mazkur til to‘g‘risidagi tasavvurlarning aslidagidan farqli tarzda tushunilishiga olib keladi.

Tadqiqot metodologiyasi:

Koreys alifbosi yaratilishi haqida sulola yilnomalarida e‘lon qilinganidan taxminan uch yil o‘tgach, qirol Sejong yangi yozuvni tanishtiruvchi va uning qo‘llanilishini tushuntiruvchi qo‘llanmani nash etdi. Shu vaqtdan boshlab koreys tili tilshunoslarning kelajak avlodlari uchun tizimli ravishda foydalanish mumkin bo‘lgan tilga aylandi. Shu jarayoni nafaqat koreys tili tarixida, balki butun Koreya davlati tarixida tub burilish desak xato bo‘lmaydi.

Shu bilan birga Koreys alifbosining, yozuvining yaratilishi uchun zaruratning paydo bo‘lishi hamda muhim bir masalaga aylanish jarayoni haqida to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Tarixdan ma‘lumki, alifbo yaratilgunga qadar bo‘lgan davrda, Koreya davlatining aholisi savod, ta‘lim olish uchun, shuningdek, davlat ishlari, har qanday hujjat bozlik ishlarida

xitoy yozuvidan foydalanilgan. Xitoy yozuvi – hozirgi kunga o’zlashtirilishi jihatidan eng murakkab bo’lgan yozuvlardan biridir. O’sha davrdagi aholi uchun ham mazkur alifboni, yozuvini o’zlashtirish, uni erkin qo’llay oladigan darajadagi yaxshi mutaxasspis bo’lish mushkul masala edi. Buning sababi faqatgina yozuvning, alifboning murakkabligigina emas, balki jamiyatning iqtisodiy ahvoli ham edi. Ta’lim olish albatta, mablag’ talab qiladigan alifboning xususiyatlaridan kelib chiqadigan bo’lsa, ancha uzoq davom etadigan jarayon hisoblanardi . Aynan shu davrdagi mamlakatning iqtisodiy ahvoli, aniqroq qilib aytadigan bo’lsak, aholining aksariyat qismini tashkil etuvchi oddiy qatlam vakillarining moddiy ahvoli bu qadar uzoq davom etadigan hamda yaxshigina mablag’ talab etadigan jarayonga tayyor emasdi. Xuddi shu sababdan ham, oddiy aholi vakillarining farzandlariga ta’lim olishlari uchun imkoniyat yaratishni emas, balki kelajakda ularni iqtisodiy jihatdan ta’minlashi mumkin bo’lgan biror hunar o’rgatishni yohud kundalik moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun yordamchi sifatida foydalanishni afzal ko’rar edilar . Zotan, vaziyatning o’zi ularni shunga majbur qilar edi. O’qish va yozishni o’rganib, savod chiqarish, dunyoviy bilimlarni egallab, davlat xizmatlarida ishlay oladigan mutaxassis bo’lish esa faqatgina zodagonlarning farzandlarigagina nasib etardi. Ular esa aholining juda kam qismini tashkil etardilar. Ushbu sanab o’tilgan holatlar o’z-o’zidan aholining yoppasiga savodsizlashishiga olib keldi. Jamiyat uchun, millat uchun va davlat uchun bu vaziyat muqarrar tanazulning debochasi edi . Buni chuqur anglagan qirol Sejong ushbu muammoni bartaraf etish maqsadida oddiy aholi vakillari uchun ham o’zlashtirilishi oson, ko’p vaqt va mablag’ talab qilmaydigan, eng muhimi esa, koreys tilidagi so’zlar, tovushlarni o’zida aniq ifodalay oladigan alifboni kashf etdi hamda zudlik bilan butun mamlakat bo’ylab joriy etdi. Bu esa aholining hamma qismini savodli bo’lishi yo’lidagi eng katta qadam edi.

Koreys tili qanday paydo bo’lgan va qayerdan kelgan? Koreys tilining kelib chiqishi haqidagi savollar tilshunoslar uchun katta qiziqish uyg’otadi, ammo bu masala mazkur savolni o’zlarining etnik kelib chiqishi haqidagi kengroq savollar bilan aralashtirib yuborishga moyil bo’lgan koreys oddiy jamoatchiligining e’tiborini ham o’ziga tortdi. Lingvistik nomenklatura chalkashliklarni kuchaytirdi. Soddalashtirilgan tarzda taqdim etilgan tilshunoslik nazariyalari murakkab etnografik va arxeologik masalalarga soya soladi, chunki arxeologik dalillardan farqli o’laroq, lingvistik dalillarni yerdan qazib bo’lmaydi.

Komparativistlar orasida yaxshi ma’lum bo’lganidek, o’xshashliklar tasodifiy yoki qarz olishning barcha imkoniyatlarini yo’q qiladigan bir-biriga bog’langan va tizimli to’plamlarda sodir bo’lishi kerak . Koreys tili bo’yicha kuchli qiyosiy tadqiqotlar juda uzoq vaqtlardan beri davom etmoqda. Tilni oltoy tillari bilan bog’lash harakatlari XX asr boshidan boshlab olib borilmoqda . 1879-yilda Aston tomonidan bildirilgan bir qancha fikrlar, farazlarga tayangan holda, aynan shu davrdan boshlab koreys tilining kelib chiqish tarixi yaponcha bilan ham uzoq ekanligi ta’kidlanmoqda. Koreys tilidagi muloqot qoidalari, ularning yuzaga kelishi, tartibga solinishi hamda aniq me’yorlarning yuzaga kelish jarayonlari turli formulalarda taklif qilingan. Shunga qaramay, mazkur farazlarning hech biri aniq xulosa qilish uchun ,shu yo’nalishda izlanish olib borayotgan tadqiqotchilarni

ishontirish uchun zarur bo‘lgan darajada emas edi. Agar shunday natijaga erishilganda, u taqqoslanayotgan tillarning o‘zaro munosabatlari va tarixdan oldingi tuzilmalari haqidagi, ehtimol, ilgari hech qanday shubha bo‘lmagan kashfiyotlarning zanjirli reaksiyasini keltirib chiqargan bo‘lar edi va eng muhimi, tadqiqotchilar har doim esta tutishlari kerakki, genetic munosabatlarni tasdiqlovchi har qanday dalil butunlay lingvistik xususiyatga ega bo‘lishi kerak. Hatto, aytaylik, etnik migratsiyasining tarixiy yozuvlari topilgan bo‘lsa ham, yoki arxeologik qazishmalar avvalgi madaniyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni isbotlagan bo‘lsa ham, ularning hech biri lingvistik dalillarga hissa qo‘shmaydi. Bunday omillar ba‘zan lingvistik tadqiqotlar qaysi yo‘nalishda borishini ko‘rsatishi mumkin, ammo ular hech qachon ushbu tadqiqotning o‘rnini bosa olmaydi. Ushbu talabda metodologiya qat’iydir.

Adabiyotlar tahlili:

Mutaxassislar hozirda koreys tili haqidagi ikkita genetik farazni jiddiy qabul qilmoqdalar: Oltoy gipotezasi koreys va yapon tillari o‘zaro bog‘liqligi haqidagi gipoteza. Oltoy, koreys va yapon tillarining nafaqat grammatik tuzilishi o‘xshash, balki ularda unilarning garmoniyasi va sheva yo‘qligi o‘xshaydi. Ko‘plab mamlakatlarning tillari o‘rtasida bu borada qizg‘in bahslar bo‘lib o‘tgan. Qolaversa bu tillar grammatikasida va leksikasida umumiy elementlar borligi ham aniqlangan. Bu masalalar to‘liq o‘z yechimini topmagan bo‘lsa-da, koreys tili oltoy va yapon tillariga yaqin munosabatda degan taxminlar bor. Tarixiy manbalarning xabar berishicha, Manjuriya va Koreya yarim orolida 2ta til guruhlari mavjud edi: shimoliy va janubiy. Shu bilan birga VII asrda Silla davlati Pekchje qirolligini (koreya yarim orolining janubiy-g‘arbidagi) va shimoliy tomonidagi Koreyani bosib oladi. Bu esa davlatda til domenantlashuviga olib keladi. Natijada 3ta davlat tillarining birlashishiga, ya’ni Silla tili asosida birlashuviga olib keladi. X asrda Koryo qirolligiga-davlatiga asos solinadi. Poytaxti esa Koreya yarim orolining markaziy qismida joylashgan Keson shahriga ko‘chiriladi. Davlat tiliga asos sifatida Keson dialekti belgilaniladi. XIV asr oxirida Choson qirolligi tashkil topadi va poytaxti Seulga ko‘chiriladi, biroq Seul geografik jihatdan Kesonga yaqin joylashganligi sababli til rivojida sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘lmaydi.

Tahlil va natijalar:

Oltoy guruhiga mansub bo‘lgan tillar fonologiya, morfologiya va sintaksisning o‘ziga xos belgilariga ega. Unli tovushlar uyg‘unligi, so‘zlarning yakunida fe‘l turadigan tartibi va agglyuntinatsiya bu xususiyatlardan eng asosiylari hisoblanadi. Ularni komparativistlar juda erta payqashgan. Ammo yillar davomida tadqiqotchilar oltoy tillarni qo‘shni tillar va til oilalaridan ajratib turuvchi boshqa qator strukturaviy xususiyatlarini ham keltirib o‘tadilar. Bu xususiyatlar, aytaylik, hind-yevropa yoki xitoy tilida topilmaydi. Va yana qo‘shimcha sifatida, o‘sha asosiy farqlovchi xususiyatlardan biri, “konverb” deb ataladigan narsaning mavjudligi sanaladi.

Xulosa va takliflar:

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, koreys tili murakab vaziyatlarga boy tarixga ega va bu tarixni tahlil etish ularda ro‘y bergan o‘zgarishlarga asoslangan holda davrlarga ajratiladi.

Ular ilk, o‘rta, yangi hamda zamonaviy koreys tili bosqichlaridir. Koreys tili leksikasi har bir davrda o‘ziga xos tarzda o‘zgarishlarga uchrab borgan. Hozirgi shaklga kelgunga qadar koreys tili leksikasi boshqa tillarning ta’siri doirasida ko‘p marotaba yangiliklar kiritilgan. Xususan, Koreyani mustamlaka qilgan davlatlar tili, ular orqali boshqa davlatlar tillarining ta’siri natijasida tushunchalarni nomlash borasida o‘zgarishlar sodir bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin. Koreys paydo bo‘lishi borasida Oltoy va genetic gipotezalar kabi ikkita asosiy tasavurlar ilgari suriladi va hamda ikkala farazning ham tasdiqlovchi va inkor etuvchi jihatlari ham bor bo‘lib, qaysi birining eng to‘g‘ri ekanligi haqida aniq bir ma’lumotlar yo‘q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Ki Moon Lee, S. Robert Ramsey . A History of the Korean Language .- London:Cambridge university press, 2011.
- 2.Kim Mun Uk .,Ismailov A., Kim Chun Sig., Mirtalipova G.D. Koreys tili grammatikasi .Toshkent:TDSH,2014.
- 3.Dialects and the history of the Korean language . Part 1: A study on the history of Korean. Seoul. 2003.
- 4.Lee Ki-Moon . A study on the Hunmong chahoe . Seoul. 1971.
- 5.Nam Kwang Woo. A dictionary of the ancient Korean language . Seoul: Tonga Press.1960

Foydalanilgan maqolalar:

- 1.”Koreys adabiy til me’yorlari va shevalarining o‘ziga xos xususiyatlari”- Xolmurodova Karomat.